Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319069

materiallar to‘plami

O‘zbekistanda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishlari

Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna
Andijon mashinasozlik instituti.Katta o‘qituvchi
Ismoilov Shukurbek Shodilbek o‘g‘li
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligi o‘z faoliyatini fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, sanoatda keng ko‘lamli ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish, shuningdek, ilmiy ixtiro natijalarini tijoratlashtirishga yo‘naltirganligi bilan belgilanadi. Ushbu omillar iqtisodiyotda kichik innovatsion biznes shakllanishiga asos bo‘ladi..

Kalit so‘zlar. Tadbirkorlik,innovatsiya,yalpi ichki mahsulot,kichik biznes,xususiy tadbirkorlik.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Darhaqiqat, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanishi natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi Статистика агентлиги дастлабки маълумотларига кўра, 2022 йилда Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ҳажми жорий нархларда 888,3 трлн. сўмни ташкил этди. Бу кўрсаткич 2021 йил билан таққослаганда 5,7 % га ўсди. Ko‘rinib turibdiki, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik makroiqtisodiy jihatdan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ijtimoiy jihatdan esa yangi ish o‘rinlarini yaratish hisobiga aholi daromadlari va to‘lov qobiliyatini oshirish imkoniyatini bermoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlashdagi davlatning oqilona iqtisodiy siyosati natijasida mamlakatimizda qulay makroiqtisodiy muhit yaratildi. Jumladan, xususiy mulk va tadbirkorlik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilik mustahkamlandi, ro‘yxatga olish, ixtiyoriy ravishda ro‘yxatdan chiqarish va tugatish, ayrim faoliyat turlari bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomalarni berish jarayonlari soddalashtirildi, davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvi cheklandi, tadbirkorlik subyektlari topshiradigan hisobotlarning barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirildi, soliq stavkalari unifikatsiya qilindi, moddiy-texnik resurslardan keng foydalanishga imkon beradigan bozor mexanizmi shakllandi.

Biroq, bugungi kunda jahon miqyosida raqobat va iste’molchilar talabining kuchayishi, tarmoqlar ishlab chiqarishidagi diversifikatsiyalashuv va ixtisoslashuvning chuqurlashuvi jarayonlari ta’siri ostida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining o‘zgarishi kuzatilmoqda. Bunday jarayon kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyotidagi tutgan o‘rniga nisbatan kengroq yondashuv zarurligini talab etmoqda.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Bo‘stonova Nilufar Abdusamatovna, Ismoilov Shukurbek Shodilbek o‘g‘li (2023). O‘zbekistanda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishlari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319069

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

materiallar to‘plami

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta’minlash va ko‘lamini oshirish bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligi o‘z faoliyatini fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, sanoatda keng ko‘lamli ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish, shuningdek, ilmiy ixtiro natijalarini tijoratlashtirishga yo‘naltirganligi bilan belgilanadi. Ushbu omillar iqtisodiyotda kichik innovatsion biznes shakllanishiga asos bo‘ladi.

Tadbirkorlikni – kapitalni yo‘naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta’riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o‘zgartirilishi yoki yangisi korxona yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘p omillarga bog‘liq, ular orasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsion doiradagi tadbirkorlikning tashkiliy shakllari mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat har-xil shakllarning rivojlanishi darajasi va bosqichining ahamiyati ularning tashkiliy rivojlanish darajasi va tashkilotga bog‘liq. Tashkilotning ichki tartib tizimi, uning bo‘limlari bilan o‘zaro harakatni, jarayonlar va harakatlar mosligini, bo‘limlar o‘rtasidagi to‘liq o‘zaro aloqa va ta’lim yo‘naltirilganligini xarakterlaydi. Ijtimoiy faoliyat darajasida tashkilot kishilarning birlashishini, u yoki bu dasturlarning aniq maqsadga erishishi jarayonida birga ishlab chiqish, o‘rnatilgan xulq-atvor normalari va qoidalariga mos harakat qilishni namoyon etadi. Tashkiliy rivojlanish darajasi uchun maqsadni amalga oshirishda samaradorlik katta ahamiyatga ega. Tashkiliy rivojlanish darajasida sinergetik natija elementlarni bo‘lingan qismlari yig‘indisi ularning tashkilotdan tashqaridagi tarqoq qismlarining faoliyatini ta’minlaydi. Kibernetikada ob’ektlarning tizimli rivojlanish darajasi sifatida tashkilotning rivojlantirishdagi ob’ektlarining asosiy g‘oyalar muammosini o‘rganish o‘z ifodasini topgan. Tashkilot boshqarish jarayoni va tarkibiy tizimi, ularning turfa darajasi o‘rtasidagi innovatsion o‘zaro harakatni namoyon etadi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tuzilmalari amalga oshirishda tashkilot shakllari, innovatsion faoliyat tashkiliy usullari katta ahamiyatga ega. Innovatsion tadbirkorlikda tashkiliy shakllarni innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishni hal qilishda rol o‘ynaydi. Innovatsion g‘oya innovatsion tadbirkorlikning faqat boshlang‘ich bosqichini ko‘rib chiqadi. Uni amalga oshirish esa tashkiliy tuzilma bilan bog‘liq.

Bugungi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda. Shakllarning har xilligi, innovatsion tashkliy tizim innovatsion faoliyatning asoslarini o‘zgartirilgan ko‘lamda innovatsiya bilan bog‘liq innovatsion loyihalar taklifi doirasini aniqlaydi. Innovatsiyaning tashkiliy shakli yoki innovatsion tashkilotning umumiy yaqinlashuvi alohida korxona sifatida yoki uning bo‘limlari, yoki majmuaviy korxona, aniq iearxarik tarkibiy qism va boshqaruv mexanizmi faoliyatini xususiyatini belgilovchisi sifatida ko‘rish mumkin, innovatsiyaning zarurligi asoslangan, innovatsion g‘oyalar bazasining paydo bo‘lishi, innovatsiyani amalga oshirish maqsadi

bilan tashkiliy innovatsion jarayonlar va texnologiyani qo‘llash va aniqlashni ta’minlaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tezlashtirilish ahamiyatli darajada innovatsion jarayonning samaradorligi bilan bog‘liq. O‘z navbatida innovatsion jarayonning samaradorligi innovatsion biznes tashkiliy tuzilmasining mustahkamligi, innovatsion tadbirkorlik bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlikning avzalligi innovatsion g‘oyalarni qidirishga intilish, yangi loyihalarni amalga oshirishga intilish va qayta ishlash adekvativ tashkiliy mexanizmlarni talab qiladi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy shakllarining mustahkamligi uning avzalligini kapital ishlab chiqarishning an’anaviy usullari bilan aniqlanadi.

Kichik korxonalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari quyidagilardan iborat:

- yangilikka yaratishdan manfaatdorlikning yuqoriligi;
- tor doirada (aniq yunalishda) ilmiy izlanishlarni olib borilishi;
- barcha intelektual resurslarni yakuniy maxsulot ishlab chiqarishga yonaltirish imkonini mavjudligi;
- katta korxonalar amalga oshira olmaydigan “risk”i yuqori bolgan ishlar olib borilishi.

Shunday qilib, innovatsion tadbirkorlikni institutsional qo‘llab-quvvatlash davlat tomonidan tartibga solish vositalari va barcha bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslangan chora-tadbirlar majmuasini o‘zida aks ettirishi lozim. Xususan, innovatsion tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirishga yondashuv innovatsion tadbirkorlikning erishgan natijalari, ular faoliyatining tashqi yoki ichki bozorga yo‘naltirilganligi, uning qaysi tarmoqqa mansubligi, miqdori va muddatlari bo‘yicha tabaqalashgan bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021-yil 22 avgustdagi tadbirkorlar bilan uchrashuvidan.

3.Y.Abdullayeva. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. “T., 2000.

5.G‘ulomov.S.S, Ahmedov D. K., Boyev X.I., Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari T., 2001.

4.Boymatova U., Bozorova F., Sobirjonova D., Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish Toshkent 2012.